

Tong

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 10 (67279)
2020-yil 9-mart

yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092

YURAGIMDA OLOV BO'LIB YONGAN BAHOR

Ko'zlarimdan sog'inch bo'lib tomgan bahor,
Yuragimda olov bo'lib yongan bahor,
Lolalarni sarxush etib qir bag'rida,
Oqqushlarning qanotida qo'ngan bahor.

Qaldirg'ochlar ardoqlaydi tuprog'ini,
Andaliblar quchar gulning yaprog'ini.
Bolarilar gulkosada shabnam ichib,
Qoldiradi yuragining chanqog'ini.

Yalpizlarni yalintirar quvnagan qiz,
Maysalarning quchog'ida cho'kkancha tiz.
Har bir giyoh doston etar dilmomasin,
Men ularni tinglayapman tongda yolg'iz...

Ostonamdan olislarda yongan chiroq,
Qizg'aldoqlar qizariblar qilgay so'roq.
Quvonchini yashirolmay tuni bilan,
Bog' to'rida qiqirlaydi Jiydabuloq.

Orzularim osmonlarga sochiladi,
Bir lahzada qulfi-dilim ochiladi.
Daftaramning peshonasin o'pgan qalam,
Yangi kunni qutlamoqqa shoshiladi.

AXTAMQULI



YANGI O'ZBEKISTONNING MAKTABLARI



Samarqand viloyatining markazidan 150 kilometr uzoqlikda joylashgan tog'larga tutashgan Jo'sh qishlog'ida ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.

«Obod qishloq» dasturi doirasida butunlay yangicha qiyofa kasb etgan ushbu maskanda ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy obyektlar foydalanishga topshirildi. Bular qatorida qishloqdagi 41-umumta'lim maktabi ham bor. Qo'shrabotlik o'quvchilar endi yangi ta'mirdan chiqqan, barcha kerakli jihozlardan ta'minlangan ushbu ta'lim maskanida tahsil oladilar. Faollar zali, sport zali, zamonaviy laboratoriya asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi maktab o'quvchilarni chinakamiga quvontirib yubordi. Endi ushbu ta'lim maskanida buyuk ajdodlarimizga munosib avlodlar yetishib chiqishi, shubhasiz.

O'z muxbirlarimiz



O'tgan haftada poytaxtimizning Sergeli tumanidagi o'quvchilar hayotida quvonchli voqea ro'y berdi. Tumandagi yangi mavzelerdan birida 329- va 330-sonli zamonaviy umumta'lim maktablarining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Har biri 1680 o'ringa mo'ljallangan bu o'quv dargohlari so'nggi yillarda qurilgan eng katta quvvatga ega maktablar qatoridan o'rin egalladi.

Ushbu maskanlarni qurish jarayonida 2019-yilda tashkil etilgan Prezident maktablari tajribasidan foydalanildi.

To'rt qavatli maktablarning har birida 48 ta o'quv xonalari mavjud bo'lib, ularning 20 tasi fan xonasi, 14 tasi boshlang'ich sinf xonasi va 14 ta xorijiy tillarni o'qitishga mo'ljallangan o'quv xonalari. Bundan tashqari, bu maktablarda axborot texnologiyalari xonasi, laboratoriya xonalari, elektron kutubxona, futbol, basketbol, voleybol maydonlari ham tashkil etilgan.

– Ushbu yangi ochilgan maktablar yurtimizda «Zamonaviy maktablar»ni tashkil etishdagi ilk qadamdir. Bunday maktablar bosqichma-bosqich mamlakatimizning barcha viloyatlarida tashkil etiladi, – deydi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi

vaziri Sherzod Shermatov.

Suratlarda ko'rib turganingizdek, zamonaviy qiyofadagi barcha shart-sharoitlarga



ega maktabdan yaqin yillarda fan olimpiadalari g'oliblari-yu, mohir sportchilar yetishib chiqadi, degan umiddamiz.

FAN OYLIKIDAGI AJOYIBOTLAR

Aziz o'quvchim! Bugun sizni poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 197-umumta'lim maktabida tahsil olayotgan tengdoshlaringiz ustozlari boshchiligida o'tkazayotgan fan oyligiga oid biri-biridan qiziqarli tadbirlar bilan tanishtirmoqchimiz.

Mazkur ta'lim maskanida yaqindagina bo'lib o'tgan matematika va informatika fanlari oyligining yakunlash marosimida o'quvchilar bor iqtidor-u, bilimlarini namoyish etishdi. 7-sinf



o'quvchilari ingliz tilida sonlarga ta'rif berishgan bo'lsa, 6-«A» sinf o'quvchilari sahna ko'rinishi tayyorlashdi. Qizlar besh tashabbus bo'yicha o'z mahoratlarini ishga solishdi. Sonlar aks ettirilgan pechenyelar, algebra kitobining rasmi tushirilgan tort bilan bezatilgan dasturxon barchaning e'tiborini tortdi. Ko'zi bog'langan holda doskaga uychaning rasmini chizib,

uning ichiga aylana, so'ng sonlarni yozish musobaqasida o'quvchilar katta ishtiyok bilan ishtirok etishdi. Tengdoshlaringiz matematika fanini chuqur o'rganishga va'da berishgach, maktab direktori Mansurbek Narimbetov va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Turg'unbo'y Omonov fan oyligi qiziqarli o'tganini ta'kidlashdi.

Oradan sanoqli kunlar o'tib, maktabdagi tabiiy fanlar uslubiy bir-lashmasi raisi Dilnavoz Nuritdinova rahbarligida navbatdagi fan oyligi doirasida tadbirlar boshlab yuborildi. Buni qarangki, mart oyi kimyo, biologiya, fizika fanlari oyligi deb belgilangani bejiz emas ekan. Zero, har bir tirik mavjudotning hayoti tabiat va uning uyg'onishi bilan bog'liq. Shu sabab, ustozlar ham bayramni bahor valsii bilan boshlab, Zulfiyaxonim ijodiga to'xtalishni ham unutishmadi. Tadbiring

asosiy qismida esa o'quvchilar tabiiy fanlarga oid ajoyib tajribalar ko'rsatishdi.

Tengdoshlaringizning bilimdon va zukukliklari sizni ham faollikka chorlagan bo'lsa, maktabingizdagi fan oyligida tashabbus ko'rsating! Ular haqida bizga yozib yuborishni ham unutmang!

Sayyora QODIROVA



Zuhra NISHONOVA olgan suratlari

MAKTABIM MUXBIRIMAN

**Men «Tong yulduzi»ning
maktabimizdagi yosh
muxbiriman.**

Bu gal ta'lim maskanimizning boshlang'ich sinf o'quvchilari o'tkazgan «Savodxonlik bayrami» haqida xabar tayyorladim. 1-«A» va 1-«B» sinf o'quvchilari she'rlar yodlab, kuy-qo'shiqlar ijro etishdi. Ayniqsa, kichkintoylardan Malika Abdumajidova, Mashhura Abdullayeva va Davlat Ne'matovlarning chiqishlari barchaga manzur bo'ldi.

Shu kuni sahnada «Tengdoshlar ijodi» ko'rgazmasi ham tashkillashtirildi. Unda maktabimiz yosh musavvirlarining Vatanga, ota-onaga hamda ustozlarga bo'lgan mehr-muhabbatlari aks ettirilgan rasmlari namoyish etildi. Hatto, «Savodxon» nomli devoriy gazeta ham tayyorlandi.

Bayram so'ngidagi kichkintoylardan iborat «Nihol» ashula va raqs guruhi a'zolarining chiqishlari barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Maftuna ABDULLAYEVA,
Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi
25-umumta'lim maktabining
5-«A» sinf o'quvchisi



ISHONCH YO'LI

**Yaqinda sinfimizda besh tashabbus bo'yicha o'z
iqtidorimizni namoyish etdik.**

Musiq va san'at yo'nalishida Bunyod doira chaldi. Raqqosa qizlarimiz raqsga tushdilar. Yulduz fortepiyanoda «Tarantella» kuyini chalib, hammaning olqishiga sazovor bo'ldi. Sportchilarimiz ham bo'sh kelishmadi, do'stlarim Bobur, Zafar, Tohir va Samandarning chiqishlari mehmonlarda katta taassurot qoldirdi. So'ngra 3-tashabbus bo'yicha sinfdoshlarim kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanish haqida to'xtalib o'tdilar. Ha, kompyuter do'stimiz, lekin undan noto'g'ri foydalansak, dushmanimiz ham bo'lib qolishi mumkin. 4-tashabbus bo'yicha kitobxonlik targ'ib etilib, mutolaa madaniyatini shakllantirishga bag'ishlangan sahna ko'rinishlari namoyish etildi. Qizlarimiz 5-tashabbusga monand o'z iqtidorlarini namoyish etishdi. Birlari soch turmakladi, Shodiyona sochiqqa gul tikkan bo'lsa, Umida xamir qorib, non yasadi, Dilfuza to'qidi, Soliha esa matoga gul tikdi. Tadbir so'ngida ota-onalar sinf rahbarimiz Yulduz opa Valiyevaga minnatdorlik bildirib, bizga omad tiladilar.

Farrux ISHQURBONOV,
poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi
244-umumta'lim maktabining 3-«V» sinf o'quvchisi

HAMMA BAXTLI YASHASIN

**Yurtimizda bir qancha «Mehri-
bonlik uyi» bor. Bu maskanda
tarbiyalanuvchilar uchun barcha
sharoitlar yaratilgan.**

Ammo, ularning ko'pchiligini ota-onalari hayot ekani ham rost. Shunday ekan, nega ular tirik yetimlarga aylanishi kerak, degan savol meni qiynaydi. Balki buning o'ziga yarsa sabablari bordir, balki men hali hayotni, undagi qiyinchiliklar, sinovlarni tushunmasman?! Ammo, nima bo'lganda ham men bolalarning yetim bo'lib qolishini sira istamayman. Hadisalarda yozilganidek, yetim bolaning tarbiyasini zimmasiga olgan inson jannatda Payg'ambarimiz bilan o'rt va ko'rsatgich barmog'imiz kabi yaqin turar ekan. Demak, yetim-yesirlarga yordam berish juda savobli, xayrli amal ekan.

Men barcha tengdoshlarimni ota-onamiz va ona Vatanimiz bag'rida ulg'ayayotganimiz uchun shukur qilib, yaxshi o'qishga chorlab qolaman.

Fotimaxon PO'LATOVA,
Samarqand viloyati, Pastdarg'om
tumanidagi 85-umumta'lim maktabining
6-sinf o'quvchisi

BIZNI HAM GAZETAGA CHIQARING, O'QUVCHILAR SHUNDAY ISTAK BILDIRISHDI.

Meni taklif qilishgan navbatdagi maktabga kirib borar ekanman, qo'limdagi fotoapparatdan muxbir ekanligimni bilib olgan o'quvchilar atrofimni o'rab olishdi. Ulardan biri savol berishga ham ulgurdi:

– Bayramimizga keldingizmi, meni ham suratga olasiz-a?

– Iye, bugun bizning sinfimizda ham katta tadbir. Yuring, ustozimning yoniga boraylik, – deydi yana biri.



Chindan ham shu kuni poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 265-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinflarida bir qator bayramlar tashkillashtirilgan ekan. Dastlab, 2-«G» sinf o'quvchilari sinf rahbari Nasiba Ibragimova boshchiligida tayyorlagan bayramni tomosha qildim. Onajonlar bayrami munosabati bilan bolajonlar she'rlar yodlab, raqsar ijro etishdi. Sahna ko'rinishida o'quvchilar, «Yulduz, sendan yuksak nima bor?» deb so'rashganida, u «Ona mehri», deya javob berdi.

2-«A» sinf o'quvchilari ham onajonlarini qutlash maqsadida ajoyib bel-lashuv tashkil etishibdi. Ustoz Xolida Ilhomjonova tomonidan tayyorlangan «Onam va men» nomli tadbirida onalar o'z qizlari bilan birgalikda to'rt shart bo'yicha bellashishdi. Sochni chi-roylil turmaklash, somsa tugish-u, maqol aytishni qoyillatgan ona-bolalarni barcha uzoq olqishladi.



Qisqasi, shu kuni mazkur o'quv dargohida bayramlarning keti uzilmadi. Biz esa maskanda faoliyat yuritayotgan «Boychechak» nomli drama to'garagi faoliyati bilan ham qiziqdik. Nargiza Qo'chqorova rahbarligidagi to'garakda bolajonlar turli ertaklarni sahnalashtirishadi. Shu bois maktabda o'tkazilayotgan tadbirlarda o'quvchilar faol va mahorat bilan ishtirok etishayotgan bo'lsa, ajabmas.

Xullas, tinib-tinchimas kichik do'stlarim bilan xayrlashar ekanman, ularning «bizni ham gazetaga chiqaring», degan istaklarini ro'yobga chiqarishni niyat qildim.

QIZLARXON



2-«V» sinfning jajji kitobxonlari esa kutubxonada jam bo'lishdi. Sinf rahbari Uljon Ochilova bolajonlarni kitobxonlikka chorlashni rejalagan ekan-da. O'quvchilar esa ustozning maqsadini amalga oshirish uchun bor iste'dodlarini ishga solib, shu kungacha kitoblardan o'rgangan bilimlarini namoyish etishdi.



BESH TASHABBUS — IMKONIYAT

Tandirdan chiqqan issiqqina nonlar-u, to'qilgan nimchalar, turli bezaklar bilan tikilgan jajji liboslar, har xil janrlarda chizilgan rasmlar ko'rgazmasi...

Bularning bari Samarqand viloyati, Nurobod tumanidagi 11-umumta'lim maktabi o'quvchilari tomonidan tashkil etilgan ko'rgazmada namoyish etildi. Unda maktabda tashkil etilgan to'garaklarga qatnaydigan o'quvchilar tomonidan musiqiy chiqishlar, ijodiy ishlar ko'rgazmasi tashkil etildi. Tadbirga tashrif buyurganlar o'quvchilarning bor iqtidor-u mahoratlariga tan berishdi.



tashabbus — adabiyot yo'nalishidagi ishtiroklari barchada katta taassurot qoldirdi.

Samarqand viloyati

KO'RGAZMA TASHKIL ETDIK

Maktabdagi birgina to'garakning kelgusi hayotingizda qanchalik ahamiyat kasb etishi mumkinligini bilasizmi? Zero, to'garakda Siz, aziz o'quvchilar o'z iste'dodingizni namoyon etasiz, hunar o'rganasiz. Hunarli kishining hayotda xor bo'lmasligini esa yaxshi bilasiz.

Shu bois, ta'lim dargohimizda o'quvchilarni turli to'garaklarga jalb qilishga alohida e'tibor beramiz. 5 tashabbus doirasida bolalarning qiziqishlaridan kelib chiqib tashkil qilingan «Yosh rassomlar» to'garagi tasviriy san'atga qiziqishi baland o'quvchilarni o'z bag'riga olgan. Men bu to'garakka rahbarlik qilar ekanman, hozirga qadar ko'plab iqtidor egalari aniqlandi. Kundan-kunga yosh iste'dodlar soni ortib borayotgani meni quvontiradi. Ularni rag'batlantirish maqsadida tez-tez ko'rgazma va tanlovlar o'tkazishga harakat qilaman. Jumladan, «Til — millat faxri», «Bayrog'im — faxrim», «Konstitutsiya mening taqdirimda» mavzusida qator qiziqarli tanlovlar tashkil qildik. G'oliblar Faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar. Bunday e'tibor, rag'bat ularning kelajakda mohir rassom bo'lishdek orzulari yo'lidagi ilk qadamlari bo'lsa, ajab emas!

Zilola INOG'OMOVA,
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi
324-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

Yurtimiz uzra bahor shukuhi kezmoqda. Ko'klamoyini keksa-yu, yosh barobar sog'inadi. Bu fasl haqida el orasida turli ta'riflar bor. Kimdir uni «Fasllar kelinchagi» desa, yana kimdir «Zumrad bahor», deydi. Shoirlar esa «Pari fasl», deya ta'riflaydi.



GO'ZALLIKNI QADRLANG!

Bahorning ilk chechlari boychechaklardan qizaloqlar jajjigina guldasta yasab, onalari va buvilariga tuhfa etishadi. Boychechaklarni olgan keksalar ularni yuz-ko'zlariga surtib, keyingi ko'klamga eson-omon yetishni niyat qiladilar.

Ayniqsa, qaldirg'ochlarning qaytishini ko'rganda qalbimizda o'zgacha his-tuyg'u paydo bo'ladi. Bolajonlar esa qanotli do'stlariga in yasab, daraxtlarga osishadi. Bog'larda bodom gullaydi, u oq libos kiygan kelinchakka o'xshaydi. Borliq yasanib bo'lgach, o'lkamizga Navro'zoy kirib keladi. Bu bayramda tayyorlanadigan bahoriy taomlar insonga kuch-quvvat bag'ishlaydi. Ariq chetidagi jajji yalpizoy o'zining xushbo'y isini bilan boshqa ko'katlardan ajralib turadi. Ko'k

somsani unchalik ham xushlamaydigan bolalarga yalpiz kabi ko'katlar dori-darmonlarga boy ekanini eslatib o'tmoqchiman.

Shunday qilib, bu faslga go'zallik yarashar ekan, bunga o'zimiz ham hissa qo'shishimiz lozim. Tabiatni asrab-avaylash kerak. Aziz o'quvchilarning, yon-atrofga qo'lingizdagi turli yeguliklardan bo'shagan yelim idishlarni tashlamang, gullar-u jonivorlarga g'amxo'rlik qiling! Toki bahoroy bizdan xafa bo'lib qolmasin! Ko'klam yurtimizga baraka, xonadonlarimizga rizq-ro'z olib kelaversin!

Muattar MAHMUDXONOVA,
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 254-umumta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

TEMURBEKKA ZAFAR YOR BO'LSIN!

Yaqinda Uchtepa tumanidagi 75-umumta'lim maktabining 1-sinf o'quvchisi Temurbek Zufarovning mental arifmetika bo'yicha bir qator yutuqlarga erishgani haqida xushxabar tarqaldi. Kuni kecha esa Temurbek onasi bilan tahririyatimizda mehmon bo'ldi. Suhbatimiz kichik g'olibning qo'lga kiritayotgan ulkan yutuqlari haqida kechdi.

— Men maktabga chiqqanimdan so'ng, darslarda faol qatnashishga, barcha fanlardan besh baho olishga harakat qildim. Ayniqsa, matematika faniga qiziqishim juda ortdi. Buni e'tiborga olgan ota-onam meni maktab tasarrufidagi NINERS mental arifmetika to'garagiga berishdi. U yerda hisob-kitobni dastlab abakus hisoblagichi yordamida bajardik. Keyin esa asta-sekin xotirada saqlash mashqlarini o'rgandik. O'qituvchimiz Zerada Mahammadkarimova bizga xotirada saqlash, qo'shish, ko'paytirish va ayirish amallarini bajarishni o'rgatayaptilar.

— O'g'lim tirishqoqligi bois ko'plab muvaffaqiyatlarga erishmoqda, — dedi Temurning onasi Zuhra Zufarova. — O'zim hisobchi bo'lganim uchunmi, uning ham hisob-kitobga qiziqishini payqab, ushbu to'garakka bergan edik.

Mental arifmetika bo'yicha turli bosqichlardan o'tib, nihoyat respublika bosqichida ham zafar quchgan Temurbek joriy yilning aprel oyida o'tkaziladigan Butunjahon olimpiadada ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi. Rossiyaning Moskva shahrida onlayn tarzda o'tkaziladigan mazkur musobaqada ham Temurbekning qo'li yana baland kelib, diplomlari soni ortishiga ishonamiz.

Senga Zafar yor bo'lsin, Temurbek!

Ozoda TURSUNBOYEVA



SPRING FUN WORD SEARCH

Can you find the words associated with the coming of Spring?

C	U	K	K	M	F	X	S	R	E	W	O	L	F	U	Q	T
I	A	X	I	K	A	O	R	N	R	Z	G	N	P	U	D	R
L	T	S	W	T	S	D	E	E	S	E	F	N	G	B	T	A
R	B	A	L	I	E	E	E	H	T	S	T	F	C	T	S	I
P	G	U	V	B	R	R	G	L	S	M	M	S	B	B	D	N
S	X	H	D	G	M	R	I	R	X	A	X	L	A	L	R	S
U	F	Y	M	S	O	R	E	T	R	R	O	E	B	E	I	D
N	P	W	F	W	P	W	K	B	O	S	Z	Y	G	G	B	A
S	C	I	I	A	O	O	L	B	S	I	P	R	A	N	Z	F
H	W	N	L	H	M	E	I	O	S	Z	Y	W	O	I	E	F
I	G	C	S	U	S	N	M	T	C	A	M	P	R	N	H	O
N	U	O	G	H	T	S	N	D	M	E	C	I	H	E	C	D
E	I	X	U	O	Q	P	U	D	D	L	E	S	Q	D	R	I
A	G	Y	V	G	W	A	G	N	I	T	S	E	N	R	A	L
D	U	Y	N	D	P	F	S	D	N	I	W	N	Z	A	M	S
Y	B	A	S	E	B	A	L	L	V	P	I	C	T	G	Z	A
L	S	J	Y	X	A	M	G	N	I	T	N	A	L	P	A	J



- | | |
|----------|----------|
| Nesting | Sunshine |
| Planting | Tulip |
| Puddles | Winds |
| Rain | Flowers |
| Robin | May |
| Seeds | Showers |

- | | |
|-----------|-----------|
| April | Gardening |
| Baseball | Green |
| Birds | Growing |
| Blossoms | Kite |
| Buds | Matbles |
| Daffodils | March |



GIVING DIRECTION

VERBS

turn left	turn right	go straight ahead	go past ...	cross

PREPOSITIONS OF PLACE

at the corner of ...	next to	opposite	between

Asking somebody for directions

- Can you please tell me how I can get to Navoi Street?
- Where is the nearest supermarket?
- How can I get to the local market?
- I'm trying to get to Downing Street.
- How do I get to the office?
- What's the best way to get to your house next ?

How to give directions to somebody else

- Go straight on till you see the hospital then turn left.
- Turn back, you have gone past the turning.
- Turn left when you see a roundabout.
- Cross the junction and keep going for about 1 mile.
- The hospital is opposite the railway station.
- The shop is near the hospital.
- The house is next to the local cricket ground.
- At the end of the road you will see a roundabout.

Muhammadsharif FAYZULLAYEV

«SINF RAHBARI AYBDORMI?» MAQOLASINI O'QIB...

Biz «Tong yulduzi» gazetasi bilan doimiy hamrohmi. Uning har bir maqolasini o'qib boramiz, sinfimiz o'quvchilari bilan muhokama qilib, o'zimizga tegishli xulosa chiqaramiz.

Gazetaning shu yil 7-soni-da chop etilgan «Sinf rahbari aybdormi?» nomli maqola diqqatimizni tortdi. Unda biz ustozlarning ko'nglidagi gaplar yozilgan. Axir sinf rahbarining zimmasiga oddiy o'qituvchilarnikidan ikki hissa ko'proq mas'uliyat yuklanadi-ku. Shuning uchun ham ularning nufuzini oshirish, namunali sinflarning rahbarlarini rag'batlantirib borish kerak, deb o'ylayman.

Yana bir gap, sinf rahbari har bir o'quvchisining oilaviy sharoiti bilan yaqindan tanish bo'lishi kerak. Bu unga o'quvchi bilan ishlashda asqotadi. Maktabda kundalik yuritmagan, forma kiymagan o'quvchilar yo'q emas. Buning ustiga, ikki o'quvchi mushlasha, sinf rahbarinigina aybdor qilish to'g'ri emas.

O'qituvchi hech qachon o'quvchiga, yomon bo'l, demaydi. Sinf rahbari sabrli, bardoshli, mulohazali inson bo'lsagina, oldiga qo'ygan maqsadiga erisha oladi.

Sanobar QURYOZOVA,
Xorazm viloyati, Yangiariq tumanidagi
19-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

OTA-ONANGIZ BILAN O'QING! SINF RAHBARI

Maktabda o'zaro kelisholmay mushlashgan ikki bolakayni direktorning xonasiga olib kirishdi.

Maktab rahbari mushlumzo'rlarining sinf rahbarini chaqirtirdi. Aksiga olib, ustoz o'quv seminariga ketgan ekan. Oradan bir soatlar chamasi vaqt o'tib, sinf rahbari maktabga kirib kelganida, har ikki o'quvchining ota-onasi uni kutib turardi... Bo'lgan voqeadan bexabar ustoz ota-onalarning dahnomi larini, kamiga maktab rahbaridan ham dakki eshitishi turgan gap. Qani, o'ylab ko'ring-chi, nahotki bu voqeadada sinf rahbari aybdor bo'lsa...

AYBDORMI?



KASBLAR «BELLASHDI»

Oqqo'rg'on tumani Agrosanoat va tadbirkorlik kasb-hunar kollejida «Kasblar musobaqasi» shiori ostida boshlang'ich kasblar birinchiligi bo'lib o'tdi.

Musobaqa «Avtomobilarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha texnik-mexanik» yo'nalishida ta'lim olayotgan o'quvchilarning kasbiy malakalarini yanada oshirish maqsadida tashkil etildi. Bellashuvda o'quvchilar ishlab chiqarish va muhandislik texnologiyalari va fuqarolik transport xizmati yo'nalishi bo'yicha topshiriqlarni amalda bajardilar. Ularning ustozlaridan



olayotgan bilim va ko'nikmalarni qay darajada o'zlashtirib borayotganliklarini tumandagi kasb-hunar kollejlari rahbarlari, kasbiy ta'lim ustalari, maxsus fan o'qituvchilari kuzatib borishdi. Shuningdek, tadbirda hamkor o'quv yurti Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi instituti dotsenti A.Ismatov, Toshkent viloyati kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmasi boshlig'i A.Zakirov, tuman hokimi muovini J.Djaniqulov, tuman Bandlikka ko'maklashish markazi rahbari L.Abduraimov ham ishtirok etdi. Musobaqa so'ngida g'olib o'quvchilar Faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Ulug'oy XUDOYNAZAROVA,
kollej direktori

BAHOR TA'RIFIDA

Keldi bahor, navbahor,
Qishni kuzatib darhol.
Gullar endi chamanzor,
Ko'klam so'rar hol-ahvol.
Daraxtning novdalari,
Kurtaklaydi, gullaydi.
O'lkamiz bolalari,
Quv naydi-yu o'ynaydi.



Katta-katta qozonda,
Sumalaklar qaynaydi.
Varrak uchib shamolda
Tengdoshlarim quv naydi.
To'rt fasl bari har xil,
Yoz, kuz, qish yana bahor.
Hammasin o'rni bordir,
Bahor esa betakror!

Nafisa SOBIROVA,
poytaxtimizning Yashnobod
tumanidagi 212-umumta'lim
maktabining 2-«A» sinf o'quvchisi

GULLARINGNI SOCHIB KELDINGMI?

Zarrin ipaklarin bog'lab gullarga,
Quyoshni yetaklab keldingmi, bahor.
Seni ma'yus kutgan oppoq yo'llarga,
Gullaringni sochib keldingmi, bahor.

Tog'laring oralab chekdi sukunat,
Daraxtlar ko'z tikib bo'ldi intizor.
Quyoshning taftidan jon olib yana,
Soylardek o'ynoqlab keldingmi, bahor.

Chechaklar osmonga tikib nigohin,
Daraxtlar guliga sepdingmi, ifor.
Borliqni husningga mahliyo etib,
O'zing ham yastanib keldingmi, bahor?!

Diyora BAXTIYOROVA,
Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi
27-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf o'quvchisi



Safar BARNOEYEV
(1938-2001)

Ustozimiz hayotligida u kishining xonadonida tez-tez bo'lib, adabiyot, san'at, yosh avlod tarbiyasi haqida suhbatlashardik.

Bir kuni ustozimizning uylariga borishni rejalashtirib, ularga qo'ng'iroq qildik. Qiziq, telefon o'chiq. Xavotirlanib, uylariga bordik. Bizni ochiq chehra bilan ustozning turmush o'rtoqlari Malika opa kutib oldilar.

– Ustoz uydamlar? – degan savolimizga javoban:

hatto telefonni ham uzib qo'ygandim. Axir yangi tug'ilgan har bir asar kashfiyotdek gap. Men har gal ijodxonalariga kirganlarida, umid bilan yangi asarlar kutaman. Chunki men har bir asarlarining birinchi o'quvchisi bo'lganimdan xursand bo'laman. Har bir she'rning bir necha qoralamalaridan qay birini tanlash borasida fikrlashamiz. Ma'qul bo'lganini tanlab, oqqa ko'chiramiz. Ushbu asar qoralamalarining hammasi ham men uchun aziz. Ularni saqlash uchun men o'zimni mas'ul hisoblayman, – deydi ustozni xotirlab Malika opa.

– Qani endi har bir ijodkor, yozuvchi, adibning ana shunday fidokor xazinaboni – homiysi bo'lsa...

Opa katta, qalin daftarni ochib, hali matbuotda e'lon qilinmagan bir nechta she'rlarni qo'limizga tutqazib:

– Mana, bahor keldi, mavsumga oid ijodlaridan sizlarga tuhfa... – dedilar.

– Rahmat, Malika opa, – deb ularni bolalarga tortiq qilish niyatida tahririyat tomon oshiqdik.

Tohir MULLABOYEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
jurnalist

SHOIRDAN TUHFA

Bolalarning sevimli shoiri va yozuvchisi, jurnalist Safar Barnoyev hayot bo'lganlarida, ming o'ying yuzini ko'rgan bo'lardilar. Ular bolalarga «Nilufarning olmalari», «Karimjon – Karlson», «Dadam haqida qo'shiq», «Xo'ja Nasriddin», «Yulduzxon va bahorjon» kabi o'ndan ortiq asarlar yozib qoldirganlar. Bu asarlar bolalarning sevimli kitobiga aylanib, qo'ldan-qo'lga o'tib o'qiladi.

– Ha, Safar akangiz ijodxonalarida ijod qilyaptilar. UZR, bugun ilhomlari kelib, yangi bir asarni tugatayotgan edilar. Shunga ularni bezovta qilmay, deb

KO'CHAT O'TQAZ

Turli-tuman niholga,
Bog'imiz to'lsin desang,
Sharbat to'la mevalar,
Yana mo'l bo'lsin desang,
Ko'chat o'tqaz.

Yoshligingning eng aziz,
Qimmatli damlarida,
Gul unsin desang agar,
Bosgan qadamlaringda,
Ko'chat o'tqaz.

Do'stlaring havas bilan
Sendan olsinlar o'rnak.
Har g'uncha yoshligingdan,
Bersinlar desang darak,
Ko'chat o'tqaz.

MAHALLAMIZ

Juda ko'rkam,
Juda shinam.
Juda toza mahallamiz,
Mahallamiz chiroyni,
Ochmoqdamiz biz hammamiz.
A'lochimiz ham o'qishda,
Yana bizda shunday odat.
Sanab ko'ring xohlagan payt,
Kimdan kimni so'rasangiz,
Shunday javob olasiz siz.

– G'affor, Ahmad, Gulnor yaxshi,
Karim, Xolmat, Dildor yaxshi.
Xullas, yaxshi mahallamiz,
Demak, yaxshi biz hammamiz.
Niyat qilib dedik uni,
Yaxshilarning mahallasi.
Eshitgan va ko'rganlarning,
Kelib qolsin bir havasi.
Juda ko'rkam,
Juda shinam.
Juda toza mahallamiz,
Mahallamiz chiroyni,
Ochmoqdamiz biz hammamiz...

Kunlardan bir kuni Shamol bilan Bulut tortishib qolishibdi. Shunda Shamol ko'ksiga urib gap boshlabdi:

– Men juda kuchliman. Erta bahorda qanchadan-qancha daraxtlarni uyg'otaman. Agar bor kuchimni ishga solsam, seni ham olislariga surib yuboraman, – debdi.

– Shamolvoy, sen ko'p maqtanma, agar men bo'lmasam, yam-yashil qir-u adirlar, cho'l-u biyobonga aylanadi, o't-o'lanlar, daraxtlar qurib qoladi. Tog'larga yog'dirgan qorlarim erda bahorda erib, qanchadan-qancha ekin maydonlarini sug'oradi, daryolarga, dengizlarga quyiladi. Yomg'irimni yog'dirganimda jajji bolajonlarning, «yomg'ir-yog'aloq, yam-yashil o'tloq», deya kulaygan qo'shiqlarini miriqib tinglayman. Kuchli yomg'irlarimni, sel va do'llarimni odamlarga ozor, ekinlarga ziyon yetkazmaslik uchun

kimsasiz tog'-u toshlarga, cho'l-u biyobonlarga yog'diraman...

SHAMOL BILAN BULUT

(Ertak)



Shu payt daladan Dehqon boboning ovozi eshitiilibdi. Bulut bilan Shamol pastga qa-

rasha, bobo o'ng qo'lida ketmonini tutib, chap qo'lini peshonasiga soyabon qilganicha ko'kka boqib shunday debdi:

– Hoy Bulut, Bulutvoy, Ona zaminimizga bir yomg'irini yog'dirib yubor. Dalaga urug' qadayapmiz, hosilimiz, rizqimiz mo'l bo'lsin.


Shunda Bulut faxrlanib Shamolga yuzlanibdi:

– Ana ko'rdingmi, Shamolvoy, odamlar meni yo'qlashyapti. Seni esa, hatto eslariga ham olishmaydi. Shunday ekan, maqtanma g'oz, hunaring oz, – debdi-da, dala va dashtlar uzra yomg'irlarini yog'dira boshlabdi...

Azizaxon YO'LDOSHALIYEVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi
2-umumta'lim maktabining 5-«V» sinf o'quvchisi

OLIIY TUYG'U

Bir kuni hayotimda bir voqea ro'y berdi-yu, yaqinlarimiz ishonchini oqlab yashashimiz nechog'li muhim ekanini angladim.



Har kuni darslar tugagach, maktabdan uyga ukam ikkimiz birga qaytamiz. Uni onajonim meniga ishonib topshirganlar-da! Ammo, bir kuni qo'shimcha mashg'ulotlar tu fayli sinf xonada uzoq qolib ketdim.

Ukamga xabar berishga esa to'g'risini aytsam, erinchoqlik qildim. U ham men bilan xabarlashmay, uyga bir o'zi ketib qolibdi. Mashg'ulotlar tugab, uyga qaytganimda, soat kechki beshlar chamasi edi. Tabiiyki, onam meni ko'zlari to'rt bo'lib kutayotgan, xavotir olayotgan ekanlar. Dadam ikkisi meni rosa koyishdi. Men juda afsuslandim. Ota-onamni xavotirga qo'yganim, ishonchlarini oqlay olmaganim uchun o'zimdan xafa bo'ldim. Shu voqea sabab, o'zimga tegishli xulosa chiqardim. Dangasalik, mas'uliyatsizlik bizga hamisha qimmatga tushishini anglab yetdim.

Aziz tengdoshlarim, siz ham bunday xatolikka yo'l qo'ymang, degan niyatda bu voqeani bayon etdim. Xulosa chiqarish sizdan.

Asila ARALOVA,

Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi 48-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf o'quvchisi

O'quvchilardan, «Eng sevimli faning qaysi?» deb so'rasangiz, aksariyat qismi «Jismoniy tarbiya», deb javob beradi. Chunki bu darsda yoshlar nafaqat jismonan, balki aqlan ham rivojlanadilar.

«QUVNOQ STARTLAR» KAYFIYATDA O'TDI

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari ularning fikrini tiniqlashtirib, sog'lom va baquvvat bo'lishiga yordam beradi, ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi.

Kuni kecha poytaxtimizning Mirobod tumanidagi umumta'lim maktablari 5-8-sinf o'quvchilari o'rtasida «Quvnoq startlar» sport musobaqasi bo'lib o'tdi. Bu bellashuv o'quvchilarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlash bilan birga, ularning o'rtasidagi do'stona aloqalarni yanada kuchaytirgani aniq. Buni ishtirokchilarning turli shartlarni bir-birlari bilan hamjihatlikda bajarishidan kuzatish mumkin edi. Mazkur bellashuvda maktabimiz o'quvchilari zafar quchdi. Ayniqsa, bilim maskanimizning 6-«V» sinf o'quvchisi Andrey Zaytsev, 5-«V»dan Luiza Zaxidova faol qatnashdilar.

2-o'rin 175-umumta'lim maktabiga, 3-o'rin esa 214-umumta'lim maktabi o'quvchilariga nasib etdi. Bellashuvda 1-2-3-o'rinlarni egallagan jamoalar



Mirobod tumani hokimligi va Mirobod Xalq ta'limi bo'limi tomonidan Faxriy yorliqlar, medal va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Go'zal BOBOYEVA,

poytaxtimizning Mirobod tumanidagi V. Gyote nomli ixtisoslashtirilgan 60-umumta'lim maktabining jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

SEHRLI XONA

Har kuni maktabimizga mo'yqalam-u, bir talay oq qog'ozlarini quchoqlagancha kirib keladigan o'quvchilarni kuzataman. Ular bugun yana bir yangi san'at asarini yaratish ishtiyoqida ekani aniq. Bunga esa to'garak rahbarining mehri, mehnati sabab bo'lsa, ajab emas. Zero, «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot maktabimizdagi tasviriy san'at to'garagi rahbari Malika Xodjayeva tasviriy san'at ixlosmandlarining rassomlikka bo'lgan qiziqishlarini orttirib kelmoqda.

Aytishlaricha, agar rassomning qalb ko'zi ochiq bo'lmasa, u hech qachon o'z ijodi bilan atrofda gilami hayratlantira olmaydi. Yosh ustozlardan biri Malikaxon buni o'z shioriga aylantirgan,

nazarimda. U bolalarning ijod namunalaridan ko'rgazmalar tayyorlash, ularni rag'batlantirib borishdan sira charchamaydi. O'zi ham izlanishdan to'xtamaydi. Intilishlari samarasi o'laroq, qator yutuqlarga erishib kelmoqda. Jumladan, «Yilning eng yaxshi to'garak rahbari» res-



publika ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida faxrli o'rinni egalladi. Maktabimizda o'tkaziladigan turli tadbirlarda ham Malikaxon o'z shogirdlari bilan faol ishtirok etadi.


— To'garak a'zolarimiz bilan birgalikda «Rang-tasvir» usulidagi chizgilari-mizdan to'plam yaratdik. Nasiba Bafoyeva, Nafisa Saidova, Amirbek Bahodirov kabi hatto manzara janrida ishlashga qobiliyati yetarli shogirdlarim borligidan faxrlanaman.

Ulardan Nasiba Bafoyeva «Illatlarga qarshi birgalikda kurashaylik» ijodiy ishlar tanlovining respublika bosqichida faxrli o'ringa sazovor bo'ldi.

Tasviriy san'at to'garagi xonasiga kirib qolsangiz, maftunkor, sirli olamga tushib qolganek bo'lasiz, rango-rang rasmlarga mahliyo bo'lib ko'zingiz quvnaydi, dilingiz zavvqa to'ladi. Bu faoliyat va san'at asarlari kelajakda yoshlarimizga katta muvaffaqiyat keltirsa, ajab emas. Malikaxon va uning shogirdlarini esa izlanuvchanlik tark etmasin, deya tilak bildiramiz. Zero, donolar aytganidek, «Aqli, iste'dodli bo'lish kifoya emas, muhimi, uni ishlata bilish kerak».

Elnora UMUROVA,

Buxoro viloyati, «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot maktabining o'quv-tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari



RANGLARDA - BAHOR JILOSINI



Dilnoza RO'ZIBOYEVA,
Benkov nomidagi ixtisoslashtirilgan
rassomlik maktabining 9-sinf o'quvchisi



Xadicha TOSHMATOVA,
Toshkent shahar, Sergeli tumanidagi
300-DIUM 5-«D» sinf o'quvchisi

Marjona QAYUMOVA,
Surxondaryo viloyati, Sariosiyo
tumanidagi 81-umumta'lim maktabining
8-«B» sinf o'quvchisi



Iroda O'ROLOVA,
Sirdaryo viloyati, Sardoba tuma-
nidagi 5-umumta'lim maktabining
5-«D» sinf o'quvchisi



Feruza MAMADIYOROVA,
Sirdaryo viloyati, Guliston tumanidagi 7-umum-
ta'lim maktabining 4-«B» sinf o'quvchisi



Bahodir SAMADOV,
Toshkent shahar, Shayxontohur
tumanidagi 82-umumta'lim makta-
bining 8-sinf o'quvchisi



PALINDROM – SO‘Z O‘YINI

Palindrom (aqa-baqa) – grekcha so‘z bo‘lib, orqaga qaytaman degan ma‘noni anglatadi. Grammatikamizda shunday so‘zlar borki, chapdan o‘ngga, o‘ngdan chapga o‘qilganda bir xil ma‘no beruvchi yoki butkul boshqacha ma‘nodagi so‘zlar mavjud.

Masalan: Non-non. Nok-kon. Ba‘zida uzun atamalar, to‘qima so‘zlar uchraydi.

Ayniqsa, qadimgi Gretsiya, Rimdagi obidalarda o‘yib yozilgan qisqa parchalar saqlangan.

SO‘ZLAR ICHIDAGI PALINDROM SO‘ZLAR

Sinfodoshlar «u bu» deguncha hayvonot bog‘iga o‘z vaqtida yetib kelishdi. Faolikka qoyil, desa bo‘ladi.

– Aqiqa ana, mana Aziza... – deya tanishtirdi o‘quvchi. Tal‘at boshqa guruhdagilarga – bu ikki dugona, a‘lochi qizlardan. Bilogiya fani o‘qituvchisi Shodmon aka nomdosh do‘sti bilan mamnun bo‘lishdi.

«Katak»dagi sayrayotgan taqlidchi qushlarning ko‘prog‘i rangdagilari «hamma»ning diqqatini o‘ziga jalb qildi.

– Xo‘sh, to‘tining oti Kakadumi, jakomi, kim biladi? – deb savol tashladi Bobur.

– Menimcha, «A... A» – dedi ishni to‘g‘ri bajarganday Rajab.

– Anovi yuvosh, chopqir hayvonlar-chi? Ohumi, bug‘umi?!

– «K... K» bo‘lsa kerak.

– Oq itning bolasi-chi?

– «K... K».


Imi-jimida Dolim aytdi:

– G‘oz uchadimi, uchadi. Zog‘ bo‘ladi, to‘g‘rimi?

O‘ynab yurgan bolakay: – Bu yerda «qo‘y» bormi? – deb hazillashganday bo‘ldi.

Barcha «yo‘q» deganday kulib yuborishdi.

– Kech bo‘lishiga qaramasdan, an‘anaga ko‘ra bu galgi hayvonot bog‘iga qilingan «Tommosha» sayrimiz qiziqarli va maroqli bo‘ldi, – deydi Uzro quvonib.



Endi krossvord – palindromga e‘tibor bering, kataklarni «Q» harfi bilan boshlanib «Q» harfi bildan tugallanuvchi so‘zlar bilan to‘ldiring.

Tuzuvchi: Anvar MIRZAZODA

BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: 94-645-90-70



Muassis:

O‘zbekiston Respublikasi
Xalq ta‘limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro‘yxatdan o‘tgan.

TAHRIR HAY‘ATI:

Dilshod KENJAYEV,
Alisher SA‘DULLAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO‘RAYEV,
Feruza MATYOQUBOV
(mas‘ul kotib)

Navbatchi muharrir
Sayyora QODIROVA

Rassom
Feruza KAMOL o‘g‘li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O‘zbekiston» NMIU bosma-xonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga bosmaxona mas‘ul.
Manzillimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi1929@umail.uz
telegram: t.me/tongyulduz
Adadi – 5656
Buyurtma – V 4097

Tahririyatga kelgan barcha qo‘lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti – 18:00
Topshirildi – 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08